# Termiz shahrida Koronovirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlari davom etmoqda

Image not found or type unknown



Termiz shahrida Koronovirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlari davom etmoqda

Bugun, 15 iyul kuni Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev tomonidan Koronovirus

infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo’yicha tuzilgan ishchi guruhga doimiy amalga oshiriladigan ishlar bo’yicha aniq ko’rsatma va topshiriqlar berildi.
Yig’ilishda, mutasaddi tashkilotlar rahbarlari va barcha mahalla raislari qatnashdilar.
Shundan so’ng ishchi guruh shaharning markaziy ko’chalari, bozorlar, istirohat bog’lari va aholi gavjum bo’ladigan joylar bo’ylab dizenfektsiya ishlarini amalga oshirdi.
Shuningdek, boshqarma, tashkilot va idoralarda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo’yicha tushuntirish, qat’iy ogohlantirish va targ’ibot ishlari olib borildi.
Qadrli hamshaharlar!
Karantin qoidalariga qat’iy rioya qilishlaringizni so’raymiz. Zero, Koronavirus tarqalishiga qarshi kurashda har bir kishining ishtiroki muhimdir.